

OMMAVIY OFERTA - VISA BUSINESS KORPORATIV DEBET TO'LOV KARTASINI CHIQRISH VA XIZMAT KO'RSATISH TO'G'RSIDA SHARTNOMA

Toshkent shahri

“ ___ ” _____ 2026 yil

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) 2023-yil 26-iyuldagi 14/23-sonli Ishonchnoma asosida ish yurituvchi Direktor Park Jin-Sung nomidan, bir tomondan va _____, keyingi o‘rinlarda “Mijoz”, _____ asosida harakat qiluvchi _____ nomidan, boshqa tomondan, ushbu Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. SHARTNOMADA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY TUSHUNCHALAR

PIN-kod – Saqlovchini Karta operatsiyalarini avtomatlashtirilgan rejimda amalga oshirishda identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi 4 xonali Shaxsiy Identifikatsiya Raqami (maxfiy kod).

POS-terminal – Kartalar yordamida naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan elektron terminal.

Avtorizatsiya – Tizim Ishtirokchisining (shu jumladan Bankning) Karta va/yoki Karta ma’lumotlaridan foydalangan holda to‘lovni amalga oshirishga ruxsati.

Faol qoldiq (summa) – Kartada mavjud bo‘lib, Saqlovchi foydalanishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar.

Bank – “KDB Bank O‘zbekiston” AJ.

Bank kuni – O‘zbekiston Respublikasining shanba, yakshanba va rasmiy belgilangan bayram kunlaridan tashqari Bank ish kuni.

Benefitsiar – Karta operatsiyasi bo‘yicha Mijoz hisoblanmaydigan mablag‘ oluvchi.

Kartani bloklash – Bank tomonidan Karta operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish choralarini ko‘rish (oxirgi holatda, karta taqdim etilganda Tizimda olib qo‘yilishi mumkin).

Ko‘chirma – MKH yoki Karta bo‘yicha Bank tomonidan belgilangan shaklda, Mijozning so‘rovida ko‘rsatilgan vaqt davri uchun, Shartnoma shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan ko‘chirma. Ko‘chirma Karta operatsiyalari va Bank komissiyalarini aks ettiradi.

Saqlovchi – Kartaning old tomonida ismi va familiyasi ko‘rsatilgan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq Mijoz bilan mehnat shartnomasi tuzilgan va Mijoz shtatida bo‘ladigan “Mijoz” ning mansabdor shaxsi yoki xodimi. Shartnomada “Saqlovchi”ga har qanday havola Mijoz uchun chiqarilgan barcha saqlovchilarini o‘z ichiga oladi.

Kartani olish jurnali – Kartani olganda Mijoz vakili tomonidan imzolanadigan, Bank tomonidan belgilangan shaklda tuzilgan, Kartaning olinganligini tasdiqlovchi hujjat.

Qarz – Shartnomaga muvofiq Mijoz tomonidan Bankka to‘lanishi/qaytarilishi/so‘ndirilishi lozim bo‘lgan summalar.

Ariza – Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan va unga muvofiq Kartani chiqarish uchun Mijozning Bank tomonidan belgilangan shakldagi arizasi.

Imprinter – Kartani xizmat ko‘rsatish punktining nomi va manzilini o‘z ichiga olgan maxsus klishe bilan jihozlangan, Slip blankiga Kartaning old tomonidan bosmaxona yo‘li bilan Sliplarni rasmiylashtirish uchun mo‘ljallangan mexanik qurilma.

Karta – Bank tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq Mijozga (Saqlovchiga) chiqarilgan, old tomonida Mijozning firma nomi hamda Saqlovchining familiyasi va ismi ko‘rsatilgan, Tizim va Bank logotipi bilan VISA Tizimining Debet korporativ to‘lov kartasi bo‘lib, Shartnoma shartlariga muvofiq tegishli MKHdagi mablag‘larga kirish vositasi sifatida xizmat qiladi va Karta operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Tranzaksiya (yoki Karta operatsiyasi) – Shartnoma va Bankning ichki qoidalari bilan belgilangan shartlarda Mijozga xizmat ko‘rsatishda Bank hamda Mijoz va/yoki tegishli Tizim Ishtirokchilari o‘rtasida ishlab chiqilgan va bir-biriga uzatiladigan xabarlar ketma-ketligi. Karta operatsiyalari quyidagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi:

- MKHlarni debetlash (savdo/xizmat ko'rsatish korxonalarida tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lov, naqd pul olish bilan bog'liq xarajat operatsiyalari);
- MKHlarni kreditlash, ya'ni MKHga pul o'tkazish;
- MKH holatini aniqlash;
- Shartnoma va Bankning ichki qoidalari bilan belgilangan shartlarda boshqa operatsiyalar;
- Karta va/yoki Karta ma'lumotlaridan foydalangan holda har qanday tranzaksiyalar.

Mijoz – Bankka Ariza topshiradigan va MKH ochiladigan hamda Karta chiqariladigan Shartnoma tomoni, yuridik shaxs.

MKH – Karta bo'yicha hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan mablag'larni hisobga olish uchun Bank tomonidan Mijozga ochiladigan Maxsus korporativ karta hisobvarag'i.

Sug'urta depoziti – Saqlovchi/Mijoz tomonidan foydalanish uchun mavjud bo'lmagan va Bank tomonidan Overdraft yoki Mijozning Bankka Qarzi yuzaga kelishi hamda boshqa hollarda ishlatiladigan Mijozning MKHidagi kamaymaydigan qoldiq mablag'lar. Sug'urta depoziti Mijozning Kartani bekor qilish va MKHni yopish to'g'risida ariza topshirgan kundan boshlab 30 kun o'tgach Shartnoma shartlariga muvofiq Mijozning hisob raqamiga o'tkaziladi.

VISA Xalqaro To'lov Karta Tizimi (Tizim) – Tizim Ishtirokchilari o'rtasida Karta operatsiyalari bo'yicha kliring hisob-kitoblarini tegishli valyuta konvertatsiyasi bilan amalga oshirishning ma'lum qoidalari o'rnatilgan, Kartalar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydigan dasturiy-texnik vositalar, hujjatlar va tashkiliy-texnik yechimlar majmui.

Overdraft – Bank tomonidan sanksiyalanmagan Mijozning MKHdan pul mablag'larini texnik jihatdan ortiqcha sarflashi.

Operatsion kun – ushbu Shartnoma va Karta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida – Bank karta tizimida oldingi operatsion kunning yopilish paytidan tortib joriy operatsion kunning yopilish paytiga qadar bo'ladigan davr. Bank karta tizimida operatsion kun/oy/yilni yopish tartibi Bank qarori bilan belgilanadi. Soat 00:00 dan Bank karta tizimida oldingi operatsion kunni yopish protsedurasi amalga oshirilgan paytga qadar bo'lgan davrda amalga oshirilgan Karta operatsiyalari Bank karta tizimida oldingi operatsion kun sanasida hisobga olinadi.

3D Secure/SecureCode paroli – Mijozni Internet tarmog'ida Karta operatsiyalarini amalga oshirishda identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi maxfiy parol.

Savdo va xizmat ko'rsatish korxonasi (savdo nuqtasi) – Tizimga ulangan va Karta orqali o'z tovar va xizmatlariga to'lovlarni qabul qiluvchi tijorat tashkiloti hisoblangan shaxs.

Qo'llaniladigan (Amaldagi) Tariflar – Kartalarning tegishli turlari va MKHni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun Bank tomonidan tasdiqlangan tariflar.

Kartaga xizmat ko'rsatish punkti – Bank, Benefitsiar.

Karta Ma'lumotlari (Rekvizitlari) – Kartada mavjud va/yoki unda saqlanadigan, Kartaning Mijozga, Karta emitentiga (Bank) va tegishli Tizimga tegishlilikini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumot.

Slip – Karta operatsiyasini amalga oshirishda Imprinter yordamida uch nusxada rasmiylashtirilgan va MKHdan Benefitsiar hisobiga pul o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan belgilangan shakldagi hujjat.

Parol – Mijoz tomonidan tanlangan va Arizada yoki Bankka taqdim etilgan boshqa yozma hujjatlarda ko'rsatilgan, Taraflar tomonidan Mijozni telefon orqali identifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan raqamli, harfli yoki harfli-raqamli kombinatsiya.

Tomonlar – Bank va Mijoz.

Kunlik operatsiya limiti – Bankning ichki hujjatlari va Shartnomaga muvofiq belgilangan, Karta yordamida amalga oshiriladigan Karta operatsiyalari uchun maksimal summa va/yoki soni bo'yicha limit.

Savdo cheki (Chek) – Karta yordamida to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Tizim Ishtirokchilari – Tizimga qo'shilish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar.

Tizim Ishtirokchilari ushbu Tizimga qo'shilgan banklar, shuningdek Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari va naqd pul beradigan shaxobchalardir. Tizimdagi Ishtirokchi-banklar quyidagilardir:

- to'lov kartasining ma'lum turini emissiya qiluvchi (chiqaruvchi), va/yoki
- o'zi o'rnatgan Bankomatlar, Bank kiosklari, POS-terminallar va Imprinterlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar.

Avtorizatsiya markazlari – Avtorizatsiyani amalga oshiradigan hamda to‘lov kartalarini blokirovka qilish va blokirovkadan chiqarishni bajaradigan Tizimdagi Ishtirokchi-banklarning bo‘linmalari.

Elektron ma’lumot tashuvchilar – magnit tashuvchilar, optik tashuvchilar, magnit-optik tashuvchilar, xotira kartrijlari, FLESH-disklar va boshqa elektron axborot tashuvchilar.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ushbu Shartnoma (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) Bank va Bankda AQSh dollarida talab qilib olingunga qadar hisob raqamiga ega bo‘lgan yuridik shaxs o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu Shartnoma Bank tomonidan Mijozning xodimi (keyingi o‘rinlarda – “Saqllovchi”, ya’ni Mijoz bilan mehnat shartnomasi tuzgan va Mijoz shtatida bo‘lgan jismoniy shaxs)ga VISA BUSINESS korporativ debet to‘lov kartasini (keyingi o‘rinlarda – “Karta”) chiqarish va berish, shuningdek AQSh dollarida “KDB Bank O‘zbekiston” AJ tomonidan emissiya qilingan xalqaro to‘lov tizimi VISA kartasi yordamida tovar va xizmatlar uchun to‘lovni ta’minlash bo‘yicha Bank xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

3. ASOSIY QOIDALAR

3.1. Karta faqat Saqllovchi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborilgan taqdirda Mijoz (Saqllovchi) uchun chiqariladi va Kartaning amal qilish muddati davomida Saqllovchi tomonidan faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2015-yil 19-oktabrdagi 92-son buyrug‘iga 1-ilova sifatida qabul qilingan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 19-noyabrda 2730-raqam bilan ro‘yxatga olingan “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborishda safar xarajatlari uchun mablag‘ berish tartibi to‘g‘risida Nizom” (keyingi o‘rinlarda – “Nizom”) ilovasida nazarda tutilgan xarajatlarni to‘lash uchun ishlatiladi. Saqllovchiga/Mijozga Kartadan naqd pul olish hamda Nizomda nazarda tutilmagan xarajatlar uchun foydalanish taqiqlanadi.

3.2. Mijoz tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ishonchnoma orqali o‘z xodimini turli ariza va xatlar taqdim etish, Karta va PIN-kod konvertini olish, kartalar bo‘yicha ko‘chirma olish hamda ushbu Shartnoma doirasida boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun vakolatlantiradi.

3.3. Mijoz mablag‘larining xavfsizligini ta’minlash maqsadida Bank tomonidan bevosita Karta orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lov operatsiyalari bo‘yicha kunlik limit belgilanadi. Ushbu limitlar Mijozning arizasiga muvofiq vaqtincha oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

3.4. Ushbu Shartnoma doirasida “Kartadan foydalanish” deganda Kartaning jismoniy qo‘llanilishi bilan bog‘liq har qanday harakatlar, shuningdek Kartaning old yoki orqa tomonida, magnit chiziqda va/yoki chipda mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan to‘liq yoki qisman foydalanish tushuniladi. “Karta ma’lumotlari (rekvizitlari)” deganda Kartaning old yoki orqa tomonida ko‘rsatilgan, shu jumladan magnit chiziq yoki chipda yozilgan to‘liq yoki qisman ma’lumotlar tushuniladi.

3.5. Shartnomada ishlatiladigan barcha tushunchalar Shartnomaning 1-bo‘limida belgilangan ma’noda tushuniladi va talqin qilinadi. Shartnomaning barcha ilovalari Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

3.6. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan va Shartnomaning 15-bo‘limiga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin.

4. KARTANI CHIQARISH

4.1. Kartani chiqarish uchun Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek Bankning ichki talablariga muvofiq hujjatlarni taqdim etadi va Bankning amaldagi tariflari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshiradi. Har bir Karta uchun Bank Mijozga alohida Maxsus Korporativ Karta Hisobi (keyingi o‘rinlarda MKH) ochadi. MKH ochish uchun Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan hujjatlarni Bankga taqdim etadi.

4.2. Karta Bank mulki hisoblanadi va Mijozga faqat MKHdagi mablag‘larga kirish vositasi sifatida beriladi. Mijoz Kartani uning amal qilish muddati tugashidan kamida 30 (o‘ttiz) kalendar kun oldin Bankga qaytarishi

shart, Shartnomada belgilangan holatlar bundan mustasno. Kartaning amal qilish muddati uning old tomonida ko'rsatiladi.

4.3. Kartani chiqarilgan kundan boshlab 2 (ikki) kalendar oy ichida Mijoz vakili Karta va PIN-konvertni olish uchun Bankka kelmagan taqdirda, Bank Kartani bekor qilish va yo'q qilish huquqiga ega. Bunda Kartaga xizmat ko'rsatish va chiqarish uchun Bank komissiyasi qaytarilmaydi. Mijozning arizasiga asosan Karta amaldagi tariflar bo'yicha qayta chiqarish uchun tegishli to'lov undirib olingan holda qayta chiqarilishi mumkin.

4.4. Birinchi yil uchun yillik xizmat ko'rsatish komissiyasi Kartani chiqarilgan kuni Mijozning MKHdan olinadi. Keyingi davrlar uchun ushbu komissiya keyingi davrning birinchi kunida undirib olinadi. Bank MKH yopilguniga qadar ushbu komissiyani undirishni davom ettiradi. Agar Mijoz Kartaning amal qilish muddati tugashidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin Kartani yopish to'g'risida ariza va Kartani Bankka taqdim etmasa, Bank keyingi davr uchun yillik xizmat ko'rsatish komissiyasini undirish huquqiga ega. Bunda ushbu komissiya avval Kartadagi faol qoldiqdan, mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda esa sug'urta depozitidan undirib olinadi.

5. KARTANI QAYTA CHIQRISH

5.1. Kartaning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan uni qayta chiqarish Bank qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Amal qilish muddati tugashi sababli Bank Kartani qayta chiqarishdan bosh tortgan taqdirda, 4.4-bandda ko'rsatilgan komissiya qaytarilmaydi; Bank Kartani qayta chiqarishni ma'qullagan taqdirda esa keyingi birinchi davr uchun yillik xizmat ko'rsatish komissiyasi undirilmaydi.

5.2. Kartaning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan uni qayta chiqarish to'lovlarsiz amalga oshiriladi; boshqa barcha holatlarda (yo'qotish, bekor qilish, Mijozning xohishiga ko'ra va boshqalar) Bank amaldagi tarif bo'yicha Kartani qayta chiqarish komissiyasini undiradi. Bunda yo'qotish yoki shikastlanish sababli Kartani qayta chiqarish tarifi qo'llaniladi. Barcha holatlarda qayta chiqarish Mijozning yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

5.3. Shartnomaning 5.1 va 5.2-bandlariga muvofiq qayta chiqarilgan Kartalar uchun tegishli Kartani qayta chiqarish paytida amaldagi Shartnoma shartlari tatbiq etiladi.

6. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Bank majburiyatlari:

- ushbu Shartnomaning 13.1-bandini hisobga olgan holda, Bank avtorizatsiya tizimining sutka davomida uzluksiz ishlashini ta'minlash;
- Karta va/yoki Karta ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha MKH va Kartani debetlash;
- Mijoz Kartasi bo'yicha Kredit vaucher (savdo nuqtasi tovar qaytarilishi yoki xizmatdan bosh tortilishi munosabati bilan Saqlovchiga pul qaytargan Karta operatsiyasi) kelib tushganda MKH va Kartani kreditlash;
- Mijozning yozma arizasiga asosan MKH yoki Karta bo'yicha ko'chirma berish;
- Mijozning yozma talabiga asosan Kartani bloklash.

6.2. Mijoz majburiyatlari:

- Saqlovchi tomonidan Kartadan faqatgina ushbu Shartnoma va Yo'riqnomaga muvofiq foydalanilishini ta'minlash, Saqlovchi bilan Shartnoma va Yo'riqnoma shartlariga ko'ra Kartadan foydalanish bo'yicha alohida shartnoma tuzish;
- Karta va/yoki Karta ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar bo'yicha moliyaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
- Bank uchun o'zgartirilgan ma'lumotlar (pasport ma'lumotlari, yashash manzili va ro'yxatdan o'tgan manzil, Saqlovchining lavozimi, Bankka avval taqdim etilgan Mijozning har qanday ma'lumotlari, telefon va mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, faks raqami va Bankka yuborilgan hujjatlardagi boshqa ma'lumotlar) o'zgartirilganidan keyin 2 (ikki) kun ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilish;
- Kartadan faqat Kartadagi faol qoldiq doirasida foydalanish;
- Saqlovchining Kartani Bankdan olganidan so'ng darhol imzo qo'yishini ta'minlash;

- Kartaga noto'g'ri o'tkazilgan yoki noto'g'ri hisobdan chiqarilmagan mablag'lar aniqlangan taqdirda, bunday vaziyat haqida Bankni darhol telefon yoki yozma ravishda xabardor qilish;
- Karta bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va Bankka qarzdorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'yimaslik; MKHdagi qoldiqlarni nazorat qilish. Har bir kalendar oyidan keyin, keyingi oyning 10-sanasigacha, barcha Karta egalari tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar aks ettirilgan MKH va Karta bo'yicha ko'chirmani mustaqil ravishda Bankdan olish;
- MKHda texnik overdraft yuzaga kelgan taqdirda, barcha qarz summasini darhol to'lash. Qarz yuzaga kelgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida qarz to'lanmagan taqdirda, Bank qarz yuzaga kelgan kundan boshlab qarz summasiga kuniga 3% miqdorida penya hisoblash huquqiga ega;
- Kartaning ishonchli saqlanishini ta'minlash va PIN-kod oshkor etilishining (Saqlovchidan tashqari) oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rish va maksimal ehtiyotkorlik ko'rsatish. Kartani va/yoki Kartaning har qanday ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga (Shartnomaning tomoni bo'lmagan jismoniy yoki yuridik shaxsga, Saqlovchidan tashqari), shu jumladan Internet tarmog'ida bermaslik (tarqatmaslik);
- Mijoz MKHni/Kartani faqat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 19 noyabrda 2730-raqam bilan ro'yxatga olingan "Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborishda safar xarajatlari uchun mablag' berish tartibi to'g'risida Nizom"da belgilangan maqsadlar uchun to'ldirishi shart.

Saqlovchi tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlar uchun:

- kunlik xarajatlar;
- turar joy (ijaraga turar joy olish) xarajatlari;
- transport xarajatlari;
- vakillik xarajatlari;
- kutilmagan xarajatlar;
- Nizomga muvofiq qoplanadigan boshqa xizmat safari xarajatlari.

Yuqorida keltirilgan xarajat toifalari ta'riflari Nizomda keltirilgan. Yuqoridagi toifalar bo'yicha limitlar miqdori Saqlovchiga Mijoz tomonidan belgilanadi.

MKHni to'ldirish uchun Bankga quyidagi hujjatlarni taqdim etish kerak:

- Saqlovchining xizmat safari xarajatlarini qoplash uchun MKHga mablag' o'tkazish to'g'risida to'lov topshirig'i;
- Saqlovchini xizmat safariga yuborish to'g'risidagi buyruqning nusxasi, unda Saqlovchining familiyasi, ismi, xizmat safari manzili va muddati ko'rsatilgan bo'lishi;
- Mijozning rahbari va bosh buxgalteri (buxgalteri) tomonidan tasdiqlangan xorijiy valyutadagi to'lanishi lozim bo'lgan summa hisobi;
- Mijoz rahbari tomonidan tasdiqlangan Saqlovchining xizmat safari reja-topshirig'i;
- Taklif etuvchi tomonning ushbu sayohat uchun moliyalashtirish shartlarini ko'rsatuvchi xat, faks, teleks nusxalari (mavjud bo'lganda);

Mijozning valyuta hisobidan MKHni boshqa maqsadlarda to'ldirish taqiqlanadi.

- Mijoz MKHga o'tkazilgan mablag'lardan Saqlovchi tomonidan maqsadli foydalanishni nazorat qilishi shart.
- Karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda Bankni darhol telefon orqali xabardor qilish (bunda Saqlovchi/Mijozning vakolatlangan shaxsi o'zining telefon so'zlashuvlari uchun parolini aytishi va Mijoz/Saqlovchini identifikatsiya qilish bo'yicha boshqa savollarga to'g'ri javob berishi kerak). Og'zaki xabardor qilgandan so'ng Mijoz 24 soat ichida buni yozma ravishda tasdiqlashi shart. Mijoz, Bank bunday xizmatni ko'rsatgan taqdirda, tegishli SMS-xabarnoma yuborish orqali kartani darhol bloklashi lozim.
- Karta yoki Karta ma'lumotlaridan faqatgina Shartnoma shartlariga muvofiq tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun foydalanish.
- Saqlovchining har bir xizmat safaridan so'ng, Saqlovchidan xarajatlar bo'yicha avans hisobotini talab qilish, amalga oshirilgan xarajatlarning xarajatlar toifalari bo'yicha limitlarga muvofiqligini tekshirish, Kartaga o'tkazilgan mablag'lardan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda mustaqil ravishda choralar ko'rish.
- Saqlovchining xizmat safari tugagandan so'ng MKHdagi qoldiq mablag'larni valyuta hisobiga qaytarish.

- Bank talabiga ko'ra Saqlovchi haqida qo'shimcha ma'lumot taqdim etish.
- Ushbu Shartnomada telefon orqali harakat qilish nazarda tutilmagan barcha holatlarda Mijoz vakili Bankka shaxsan, zarur hollarda esa yozma ravishda murojaat qilishi shart.

7. TOMONLARNING HUQUQLARI

7.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Mijoz/Saqlovchining Shartnoma shartlarini buzishi, shuningdek Kartaning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan Karta amalini to'xtatib qo'yish va Shartnomani bekor qilish;
- Karta yoki Karta ma'lumotlaridan foydalanish natijasida, shuningdek Mijozning Shartnoma shartlarini buzishi natijasida Bank tomonidan ko'rilgan barcha xarajatlarni Mijozdan undirish;
- Agar tijorat maqsadlari talab etsa, Bank tariflarida o'zgartirishlar kiritish. Bunday o'zgarishlar haqida xabardorlik Bankdagi maxsus ajratilgan joyda yoki Bankning www.kdb.uz rasmiy veb-saytida yangi tariflarni e'lon qilish yo'li bilan amalga oshiriladi;
- zarur hollarda MKHdagi sug'urta depoziti miqdorini o'zgartirish.

7.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- Kartani shikastlanishi yoki yo'qolishi/o'g'irlanishi sababli qayta chiqarish. Bunda Kartaning amal qilish muddati uzaytirilmaydi;
- SMS orqali xabardor qilish xizmatini ulash orqali Kartadagi qoldiq va tranzaksiyalar haqida ma'lumot olish;
- Bankning amaldagi tariflari bo'yicha MKH va/yoki Kartadan ko'chirma olish.

8. TARIFLAR VA MIJOZNING BANK BILAN O'ZARO HISOB-KITOBBLARI

8.1. Bank tomonidan Shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Mijoz Bankka amaldagi tariflar bo'yicha komission mukofot (komissiya) va boshqa to'lovlarni to'lashi lozim. Bunda Bank komissiyalari MKH valyutasida MKHdan undirib olinadi.

8.2. Komissiya to'lovi Shartnomaning 8.5-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8.3. Qo'llaniladigan Tariflar Mijoz Shartnomani imzolashdan oldin Bank tomonidan Mijozga taqdim etiladi. Shartnomani imzolagan holda Mijoz Tariflar bilan tanishganligini, ularning miqdori, o'zgartirish va qo'llash tartibiga roziligini tasdiqlaydi.

8.4. Bank bir tomonlama Tariflarga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Kiritilgan o'zgarishlar haqida Bank Mijozni bunday o'zgarishlar kuchga kirguniga kamida 3 (uch) kalendar kun oldin Bank binosida e'lonlar joylash yoki Bankning www.kdb.uz internet tarmog'idagi (yoki Bankning boshqa rasmiy saytidagi) elektron saytida ma'lumot joylashtirish yo'li bilan xabardor qiladi.

8.5. Bank Karta operatsiyalari summalarini, Bank komissiyalarini, shuningdek MKHga yoki Kartaga noto'g'ri o'tkazilgan/Karta yoki MKHdan xatolik tufayli hisobdan chiqarilmagan mablag'larni va qarzni, shu jumladan Mijozning Bankka boshqa majburiyatlari bo'yicha qarzini MKHni to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan, MKHda mablag' bo'lmagan/yetarli bo'lmagan taqdirda esa quyidagi yo'llar bilan hisobdan chiqaradi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shartnoma va Bankning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan hujjatlar asosida Bankda ochilgan Mijozning har qanday bank hisob raqamlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash; va/yoki

- Bankda ochilgan Mijozning bank hisob raqamlariga yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli banklaridagi hisob raqamlariga to'lov talablarini qo'yish.

Hozirgi holda Mijoz Bankka ushbu Shartnoma bandida belgilangan holat va tartibda Mijozning qo'shimcha roziligi (aksepti) talab etilmagan holda mablag'larni hisobdan chiqarish huquqini beradi.

8.6. Mijoz MKHga yoki Kartaga noto'g'ri o'tkazilgan/Karta yoki MKHdan hisobdan chiqarilmagan mablag'larni, bunday noto'g'ri o'tkazish/qabul qilishning sababidan qat'iy nazar, Bank talabidan yoki Mijoz tomonidan ushbu fakt aniqlanganidan keyin 2 (ikki) kun ichida Bankka qaytarishi shart. Bunda Bank talabi, Bank tomonidan Mijozning Bank uchun ma'lum bo'lgan so'nggi yuridik manziliga yozma talab yuborilganda taqdim etilgan hisoblanadi. Bank talabini Mijoz tomonidan Mijoz rekvizitlarining o'zgarishi munosabati bilan

olmaganlik Mijozning mutlaq mas'uliyati hisoblanadi va Bank talabini yuborishning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

9. KARTANI BLOKLASH

9.1. Kartani bloklash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- MKHni bloklamasdan– Kartaning o'g'irlanishi/yo'qolishi munosabati bilan Mijozning arizasiga asosan (shu jumladan Bank tomonidan bunday xizmat ko'rsatilgan taqdirda, tegishli SMS-xabarnoma asosida); Bank tomonidan Kartadan firibgarlik tranzaksiyalarini amalga oshirish uchun foydalanilayotganligi shubhasi bo'lsa, Karta bo'yicha operatsiyalar tabiati Bank tomonidan yuqori xavfli deb belgilangan Karta operatsiyalari mezonlariga to'g'ri kelsa, shuningdek Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan tranzaksiyalar bo'lsa;

- MKHni bloklagan holda – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan tartibga muvofiq MKH bo'yicha xarajat operatsiyalarini to'xtatib qo'yish, MKHdagi mablag'larni musodara qilish to'g'risida vakolatli davlat organlarining va/yoki mansabdor shaxslarining qarorlari asosida va/yoki Shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

9.2. Bank o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda Kartani va/yoki MKHni blokirovka qilish huquqiga ega:

- Mijozning Shartnoma shartlarini buzishi;

- Bank fikricha, Mijoz va/yoki Bankka zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar mavjudligi;

- Shartnomaning 13.7-bandiga muvofiq Bank talabida ko'rsatilgan muddati o'tganidan keyin Bank talabidan 2 (ikki) kun ichida Mijoz tomonidan Qarzning to'lanmasligi, shuningdek Mijozning Bankka boshqa majburiyatlari bo'yicha qarz mavjudligi;

- Karta va/yoki MKHdan Shartnoma shartlariga muvofiq bo'lmagan tarzda, firibgarlik operatsiyalarini amalga oshirish, pul mablag'larini legalizatsiya qilish (yuvish) va/yoki terroristik faoliyatni moliyalashtirish uchun foydalanilayotganligi haqida yetarli shubhalar mavjudligi, shuningdek Bank tomonidan to'lov tizimidan Tizim savdo nuqtalarida Karta ma'lumotlarining kompromitatsiya xavfi mavjudligi haqida ma'lumot kelib tushganda;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga Shartnoma bo'yicha operatsiyalarni cheklovchi o'zgartirishlar kiritilganda.

Ko'rsatilgan hollarda Kartani bloklash zaruriyati yo'qolsa, Bank tomonidan blok olib tashlanadi.

9.3. Kartani bloklash to'g'risidagi ko'rsatmalar Mijoz tomonidan Bankka telefon orqali (Parol ishlatilgan holda va Bank xodimi tomonidan berilgan identifikatsiya savollari to'g'ri javoblangan holda) yoki Bankka bevosita yozma murojaat qilish yo'li bilan beriladi (shu jumladan Bank tomonidan bunday xizmat ko'rsatilgan taqdirda, tegishli SMS-xabarnoma asosida). Kartani blokdan chiqarish Bankning ichki hujjatlari va Kartadan foydalanish Qoidalariga (Shartnomaga 1-ilova) muvofiq amalga oshiriladi.

Bank ushbu badda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra Kartani bloklash orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlari uchun Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi.

10. KARTA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

10.1. Mijoz/Saqlovchi Karta operatsiyalarini Shartnoma va VISA to'lov tizimi hujjatlariga muvofiq amalga oshirishga majbur bo'ladi. Karta operatsiyalarini amalga oshirishda Saqlovchi ushbu Shartnoma va Kartadan foydalanish Qoidalari (Shartnomaga 1-ilova) shartlariga muvofiq Kartadagi mablag'lardan foydalanadi. Mijoz MKH va Kartadagi mablag'lar qoldiqlarini va harakatini, shuningdek ulardan maqsadli foydalanishni oylik Ko'chirmalar olish, ogohlantirish (SMS) xizmatini ulash yoki Bankka murojaat qilish yo'li bilan mustaqil nazorat qilishi shart. Mijoz va Saqlovchiga Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 19 noyabrda 2730-raqam bilan ro'yxatga olingan Nizomda nazarda tutilmagan tranzaksiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi.

10.2. Karta (yoki Karta ma'lumotlari) yordamida boshlangan Karta operatsiyasi bo'yicha Bank tasdiqlash hujjatlari yoki amalga oshirilgan Karta operatsiyasi bo'yicha elektron fayllar olinguncha MKHda Avtorizatsiya summasiga (Bank komission mukofotini hisobga olgan holda) mablag'larni blok qilish huquqiga ega. Bunda MKHda blokirovka qilingan summalar Bank tomonidan Kartani blokirovka qilish to'g'risida ariza olinganidan keyin ham hisobdan chiqarilishi mumkin.

10.3. Bank quyidagi hollarda MKH yoki Kartaga mablag' o'tkazish operatsiyalarini o'tkazmaslik huquqiga ega:

- Ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Shartnoma shartlariga zid bo'lsa. Bunda, agar bu holat bunday operatsiya amalga oshirilgandan so'ng aniqlansa, Bank bunday tranzaksiyani bekor qilish va/yoki bir tomonlama tartibda ushbu Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

- Karta blokirovka qilingan/bekor qilingan bo'lsa yoki uning amal qilish muddati tugagan bo'lsa.

10.4. Mijoz Karta va/yoki Karta ma'lumotlaridan foydalanib amalga oshirilgan barcha Karta operatsiyalari bo'yicha so'zsiz hisob-kitob qilishga majbur bo'ladi, shu jumladan, lekin quyidagilar bilan cheklanmagan holda: to'g'ri PIN-kod terish va/yoki Kartaning old va/yoki orqa tomonida ko'rsatilgan ma'lumotlardan to'liq yoki qisman foydalanish (shu jumladan Karta raqami, amal qilish muddati, Mijozning Familiyasi/Ismi, CVV/CVV2 kodi), magnit chiziq yoki chipdan to'liq yoki qisman ma'lumotlar, terminal chekiga imzo, va/yoki Internet tarmog'idagi va boshqa holatlardagi Karta operatsiyalarida Karta Rekvizitlarini ko'rsatish yo'li bilan amalga oshirilgan, agar Bankka bunday operatsiyalar amalga oshirishidan avval Kartani bloklash yoki bekor qilish to'g'risidagi ariza yuborilmagan bo'lsa, 6.2-bandni hisobga olgan holda.

Amalga oshirilgan Karta operatsiyasini tan olmagan taqdirda, Mijoz Karta operatsiyasi amalga oshirilgan kundan boshlab 45 (qirq besh) kalendar kun ichida mavjud hujjatlar (Sliplar, Cheklar va h.k.) ilova qilgan holda Bankni xabardor qilish huquqiga ega.

Bank Mijozning arizasiga asosan xalqaro to'lov tizimi tomonidan nazarda tutilgan muddatlarda vaziyatni o'rganadi va agar bunday shikoyat to'lov tizimi qoidalariga ko'ra mumkin bo'lsa, Mijoz nomidan tegishli Karta operatsiyasini shikoyat qilish jarayonini boshlashi mumkin. Bank tomonidan shikoyat arizasining qabul qilinishi Bank tomonidan Mijozga mablag'larni qaytarish majburiyatini anglatmaydi. Tranzaksiyalarni shikoyat qilish bo'yicha har qanday harakatlarni amalga oshirish xarajatlari Mijoz mablag'lari hisobidan va Bank tariflari bo'yicha qoplanadi.

Bank shikoyat natijasi uchun mas'ul bo'lmaydi, shikoyatning muvaffaqiyatli yakuni va Mijozga mablag'larni qaytarilishini kafolatlamaydi va ta'minlashga majbur emas.

10.5. Karta operatsiyasini muvaffaqiyatli shikoyat qilish holatida Bank Benefitsiar tomonidan qaytarilgan mablag'larni, ular kelib tushishi va summasi bo'yicha hamda tranzaksiyalarni shikoyat qilish davri bo'yicha to'lov tizimi talablarini hisobga olgan holda tegishli MKHga o'tkazadi.

10.6. Karta valyutasidan farqli valyutada Karta bo'yicha xarajat Karta operatsiyasi amalga oshirilgan taqdirda, bunday valyuta amaldagi tariflar bo'yicha Karta valyutasiga ayirboshlanadi.

10.7. Kartadan faqat Saqlovchi foydalanishi shart.

10.8. Mijoz MKH bo'yicha xarajatlarni nazorat qilib, Karta operatsiyalarini amalga oshirishda Bank komissiyasi summasini hisobga olgan holda texnik overdraftga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladi. Texnik overdraft yuzaga kelgan taqdirda Mijoz Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi. Mijoz tomonidan texnik overdraftga yo'l qo'yishning har bir holati Shartnoma shartlarining muhim buzilishi hisoblanadi va Bank tomonidan Shartnomani bekor qilishga olib kelishi mumkin.

10.9. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish rejimida Karta operatsiyalarini amalga oshirishda Mijoz/Saqlovchi ishlatiladigan texnik vositalar ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish majburiyatini oladi.

10.10. To'lov tizimining ishlash xususiyatlari va Karta tranzaksiyalarini qayta ishlash jarayonlarini hisobga olgan holda, ushbu Shartnoma doirasida Karta tranzaksiyasi Mijoz va Saqlovchi tomonidan boshlangan va sanksiyalangan deb hisoblanadi, va Bank tomonidan tranzaksiya summasini va bank komissiyalarini MKH va Kartadan hisobdan chiqarish bo'yicha Mijozning topshirig'i sifatida quyidagi hollarda talqin qilinadi:

- Karta tranzaksiyasi to'g'ri PIN-kod terish bilan tasdiqlangan bo'lsa, yoki

- Karta tranzaksiyasi savdo terminalidagi chekga imzo bilan tasdiqlangan bo'lsa, yoki

- Karta tranzaksiyasi kartada mavjud har qanday ma'lumotlar (CVV2 kodi yoki amal qilish muddati yoki karta raqami yoki boshqalar) bilan tasdiqlangan bo'lsa, yoki

- Karta tranzaksiyasini avtorizatsiya so'rovida savdo nuqtasi tomonidan avtorizatsiya markazida Karta tranzaksiyasini avtomatik rejimda avtorizatsiya qilish uchun yetarli bo'lgan karta ma'lumotlari va rekvizitlari (PVV, yoki iCVV yoki boshqalar) yuborilgan bo'lsa, bunda Karta tranzaksiyasini Bank avtorizatsiya markazi tomonidan avtorizatsiya qilish jarayonida to'lov tizimidan olingan shifrlangan ma'lumotlar va rekvizitlar

avvaliga kartaning magnit chiziqqa yoki chipiga yozilgan ma'lumotlar bilan tekshirilishini hisobga olgan holda, yoki

- To'lov tizimi qoidalari bilan avtorizatsiya so'rovi yuborilmagan holda, to'g'ri karta raqami mavjudligida Karta tranzaksiyasini amalga oshirish nazarda tutilgan hollarda.

11. KARTADAN FOYDALANISH VA KARTA OPERATSIYALARI BO'YICHA LIMITLAR VA CHEKLOVLAR

11.1. Bank Karta yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan Kunlik operatsiya limitlarining standart paketini belgilaydi, ular Mijozning yozma arizasiga ko'ra vaqtincha oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ushbu Shartnomani imzolagan holda Mijoz amaldagi limitlar, ularni o'zgartirish va qo'llash tartibi bilan tanishganligini tasdiqlaydi va bunday limitlarni belgilashga rozilik bildiradi.

11.2. Kartalar bo'yicha firibgarlik operatsiyalarining jahon tendensiyasini hisobga olgan holda, Mijoz mablag'lari xavfsizligini ta'minlash maqsadida Bank tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida bitta savdo nuqtasidagi tranzaksiyalar summasiga, ma'lum vaqt oralig'idagi tranzaksiyalar soniga, ma'lum vaqt oralig'ida Kartadan turli mamlakatlarda foydalanishga va boshqalarga cheklovlar ham o'rnatilishi mumkin. Ushbu Shartnomani imzolagan holda Mijoz bunday cheklovlar mavjudligi, ularning qo'llanilish tartibi bilan tanishganligini tasdiqlaydi va bunday cheklovlarni belgilashga rozilik bildiradi.

11.3. Mijozga Kartadan noqonuniy maqsadlarda foydalanish, jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki Shartnoma tomonidan nazarda tutilmagan va taqiqlangan tovar va xizmatlar uchun to'lash va boshqa harakatlarni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomaga muvofiq Karta yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan operatsiyalarni o'tkazish taqiqlanadi.

12. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

12.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha bajarmaganlik/lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'ladilar, agar bunday bajarmaslik/lozim darajada bajarmaslik fors-major holatlari – tabiiy ofatlar, ijtimoiy kataklizmlar, bevosita Shartnoma predmetiga taalluqli bo'lgan faoliyatni taqiqlaydigan yoki cheklaydigan hokimiyat organlarining va ularning mansabdor shaxslarining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining harakatlari, qarorlari, texnika nosozligi, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni uzatish tizimidagi uzilishlarga olib keluvchi boshqa holatlar oqibatida yuz bermagan bo'lsa.

Ushbu Shartnoma bandida nazarda tutilgan fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Shartnoma bo'yicha tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati bunday holat davom etgan vaqtga mutanosib ravishda suriladi.

12.2. Bank Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning qoidalari, shartlari va talablarining buzilishi hollarda Mijoz oldidagi har qanday javobgarlikdan ozod etiladi.

12.3. Karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, Mijoz Bank voqea haqida yozma bildirishnoma olgan paytdan boshlab 24 soat o'tguniga qadar Kartadan foydalanish uchun javobgar bo'ladi.

12.4. Bank Mijoz oldida Bank tomonidan uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgar bo'ladi (MKH bo'yicha Mijoz yoki Saqlovchi bo'lmagan shaxslarga, qonunchilikda va shuningdek Shartnomada belgilangan hollardan tashqari).

12.5. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- Uchinchi shaxslar tomonidan Karta yoki Saqlovchiga xizmat ko'rsatishdan bosh tortish;

- Tizim va Kartaga xizmat ko'rsatish punkti o'rtasida aloqa yo'qligi sababli Karta operatsiyasi so'rovining Bankka kelmay qolishi;

- Kartaga xizmat ko'rsatish punkti tomonidan Bankning Avtorizatsiya javobini olmasligi;

- Yo'qolgan/o'g'irlangan Kartani Mijoz tomonidan o'z vaqtida blokklanmasligi, shuningdek MKHga, Kartaga yoki Karta ma'lumotlariga ruxsatsiz kirilishi oqibatlari;

- Bankning nazoratidan tashqaridagi holatlar sababli Kartani biron-bir bank, savdo nuqtasi yoki biron-bir boshqa uskunaning qabul qilmasligi;

- Shartnomaning 13.3-bandiga muvofiq Bankni o‘zining rekvizitlari o‘zgarganligi haqida o‘z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatlarini;
 - Saqlovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning yo‘qolishi/o‘g‘irlanishi haqida Bankni o‘z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatlarini;
 - Shartnoma shartlariga yoki to‘lov tizimiga muvofiq Bank nomidan Bank tomonidan avtorizatsiya qilingan va Karta va/yoki Karta ma‘lumotlaridan (to‘liq yoki qisman ma‘lumotlar) foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar, shu jumladan, lekin quyidagilar bilan cheklanmagan holda: PIN-kod, Karta raqami, uning amal qilish muddati, Mijozning familiyasi va ismi, Kartaning orqa tomonida ko‘rsatilgan CVV kodi (uch nazorat raqami), magnit chiziq va/yoki chipda yozilgan ma‘lumotlar;
 - Vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq taqdim etilgan ko‘rsatmalari asosida hisob/mablag‘larga band solish yoxud MKH bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish munosabati bilan MKH bo‘yicha Karta operatsiyalarini amalga oshirish imkonsizligi, shuningdek Shartnomaning 9.2-bandi va 11-bo‘limida belgilangan holatlarda;
 - Mijozning Shartnoma va unga ilovalar shartlarini bajarmasligi natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari.
- 12.6. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo‘ladi:
- Mijoz yoki Saqlovchi tomonidan Shartnoma va unga ilovalar shartlarining buzilishi natijasida Bankka yetkazilgan zarar– Bankka yetkazilgan zararining to‘liq hajmida va qo‘llaniladigan jarimalarda;
 - Mijoz yoki Saqlovchi tomonidan uchinchi shaxslarga Karta va/yoki Karta ma‘lumotlari, shu jumladan PIN-kod, Karta raqami, uning amal qilish muddati, Mijozning familiyasi va ismi, Kartaning orqa tomonida ko‘rsatilgan CVV kodi (uch nazorat raqami), magnit chiziq va/yoki chipda yozilgan ma‘lumotlar berilishi munosabati bilan Bank/Mijozga yetkazilgan zarar – yetkazilgan zararining to‘liq hajmida;
 - Shartnomaga muvofiq Bankka taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi va dolzarbligi. Noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma‘lumotlar taqdim etilgan taqdirda, shuningdek ma‘lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda, Mijoz Bankka bu munosabat bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararni to‘liq miqdorda qoplaydi;
 - Shartnoma bo‘yicha Bankka Qarz, Overdraftning to‘lanmasligi, to‘lashda kechikish – Shartnomaga muvofiq Qarz mavjud bo‘lgan har bir kun uchun Qarz summasidan 3 (uch) % miqdorida penyani hisobga olgan holda Shartnoma bo‘yicha;
 - Yo‘qolgan/o‘g‘irlangan Kartani o‘z vaqtida blokirovka qilmaslik, shuningdek Karta ma‘lumotlariga ruxsatsiz kirilishi – Bankka yetkazilgan zararining to‘liq hajmida;
 - Shartnomaning 8.6-bandida belgilangan holatlarda mablag‘larni Bankka qaytarmaslik – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan penyani hisobga olgan holda qaytarilmagan summa miqdorida, har bir kechiktirilgan kalendar kuni uchun;
 - Mijozning aybi bilan Bankka yetkazilgan xarajatlar va sud xarajatlari yoki yo‘qolgan/o‘g‘irlangan Kartani blokirovka qilish va/yoki tortib olish bilan bog‘liq xarajatlar – Bank tomonidan ko‘rilgan xarajatlarning to‘liq hajmida;
 - Shartnomani tuzish va bajarish munosabati bilan Mijozga ma‘lum bo‘lgan Bank haqidagi maxfiy ma‘lumotlarning oshkor etilishi – bunday ma‘lumotlarning oshkor etilishi natijasida Bankka yetkazilgan zararining to‘liq hajmida;
 - Bank Kartaning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi haqida yozma bildirishnoma olgan paytdan boshlab 24 soat o‘tguniga qadar Kartadan foydalanish.

13. BOSHQA SHARTLAR

13.1. Karta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida Bank o‘z nazorati doirasida Bankning Karta tranzaksiyalarini qayta ishlash tizimlarining uzluksiz ishlashini va Karta operatsiyalarining sutka davomida Avtorizatsiyasini ta‘minlaydi.

13.2. Bank MKH yoki Kartadagi mablag‘lar harakati va balansi bo‘yicha ko‘chirmani Mijozning yozma so‘roviga muvofiq Mijozga beradi. Bank SMS-xabarlash xizmatiga ulanilganda tranzaksiya va Kartadagi qoldiq haqida ma‘lumotni SMS ko‘rinishida uzatish huquqiga ega.

13.3. Mijoz tomonidan Saqlovchining aloqa ma'lumotlari va pasport rekvizitlarini o'zgartirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilinganda, o'zgartirishlar Bank tomonidan Mijozning tegishli yozma bildirishnomasini Bank tomonidan olgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kundan kechiktirilmay amalga oshiriladi. Agar Mijoz/Saqlovchi SMS-xabarlash xizmatiga ulangan bo'lsa, Mijoz tranzaksiyalar va/yoki Kartadagi qoldiq haqida ma'lumot olish uchun ishlatiladigan aloqa ma'lumotlari o'zgarishi haqida Bankni darhol xabardor qilishi shart. Ushbu talabga rioya qilmagan taqdirda, mumkin bo'lgan oqibatlar uchun barcha javobgarlik Mijozga va/yoki Saqlovchiga yuklanadi.

13.4. Karta va/yoki MKH bo'yicha Bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlar va harakatlar, shu jumladan limitlarni oshirish yoki kamaytirish, CVV2 kodi tekshiruvini o'chirish, SMS-xabarlash xizmatini ulash/o'chirish va boshqalar Mijozning imzo namunalari kartasida ko'rsatilgan shaxslarning imzolari va Mijoz muhri bilan tasdiqlangan yozma murojaatlari asosida amalga oshiriladi.

13.5. Kartani blokirovka qilish, shuningdek Bankning ichki tartiblariga muvofiq boshqa ruxsat etilgan harakatlar to'g'risida telefon orqali qabul qilingan ko'rsatmalar, to'g'ri telefon so'zlashuvi paroli ko'rsatilgan va Bank xodimining Saqlovchi yoki Mijozni identifikatsiya qilish bo'yicha boshqa savollari to'g'ri javoblangan holda, qog'oz tashuvchida Mijoz imzo namunasiga muvofiq imzolangan va tasdiqlangan Mijozning yozma ko'rsatmalariga tenglashtirilib hisoblanadi. Mijozni identifikatsiya qilishda shubha yuzaga kelganda, Bank telefon orqali qabul qilingan so'rovlar bo'yicha ma'lumot berish yoki harakatlarni amalga oshirishdan bosh tortish va Mijozning vakolatli shaxsidan Bankka shaxsan murojaat qilishni so'rash huquqiga ega.

13.6. Bank Mijozning qo'shimcha roziligi talab etilmagan holda quyidagilarga haqlidir:

- Talabning haqiqiyligini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni topshirgan holda Mijoz tomonidan Qarzni to'lash bo'yicha o'z huquqlarini (talablarini) uchinchi shaxslarga o'tkazish;
- Qarzni undirish bo'yicha uchinchi shaxslarga topshiriq berish va ularga Bank topshiriqni bajarishi uchun zarur ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish.

13.7. Bank Mijozga tegishli talab yuborish orqali Mijozning Bankka qarshi Qarzini muddatidan oldin to'lash sanasini belgilash huquqiga ega.

13.8. Agar O'zbekiston Respublikasining valyuta va/yoki boshqa qonunchiligiga muvofiq Karta operatsiyasini yoki MKH bo'yicha operatsiyani amalga oshirish uchun Mijozdan qo'shimcha hujjatlar olish/taqdim etish talab etilsa, Mijoz bunday hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda va tartibda, lekin operatsiyani amalga oshirish paytidan kechiktirilmay olish/taqdim etishga majbur bo'ladi.

13.9. Bank Mijozga har qanday axborot materiallarini (shu jumladan bildirishnomalarni) Shartnomada yoki Bankka yuborilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan rekvizitlar (shu jumladan pochta manzili, elektron pochta manzili, faks raqami, statsionar yoki mobil telefon raqami va h.k.) bo'yicha yuborish huquqiga ega.

13.10. Saqlovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qolgan/o'g'irlangan taqdirda, Saqlovchi yoki Mijoz buni darhol Bankka xabardor qilishi shart.

13.11. Ushbu Shartnomani imzolash bilan Kartani chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi boshqa Shartnoma asosida avval chiqarilgan Karta bo'yicha tomonlarning barcha huquqlari va majburiyatlari ushbu Shartnomaga ko'chirilgan va ushbu Shartnomada belgilangan huquq va majburiyatlarga muvofiq tomonlar tomonidan bajarilishi shart deb hisoblanadi.

14. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

14.1. Shartnoma ikki tomon imzolagan paytdan kuchga kiradi va quyidagiga qadar amal qiladi:

- Shartnoma talablarini hisobga olgan holda Mijozning MKHni yopish va Kartani bekor qilish uchun Bankka yozma murojaat qilgunicha, to'lanmagan Qarz holatlari bundan mustasno, yoki

- Shartnomaga muvofiq chiqarilgan Kartaning amal qilish muddati tugaguniga qadar, to'lanmagan Qarz holatlari bundan mustasno, agar Kartaning amal qilish muddati tugash paytida MKHda Mijozning qoldiq mablag'lari mavjud bo'lsa – Bank tomonidan Shartnomaning 14.5-bandida MKH qismida belgilangan majburiyatlar bajarilgunicha, yoki

- Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va tartibda Karta va MKH yopilgunicha.

Kartani qayta chiqarish holatida, Shartnomaning amal qilish muddati har safar Shartnoma shartlarini hisobga olgan holda qayta chiqarilgan Kartaning amal qilish muddati tugaguniga qadar uzaytiriladi.

14.2. Bank Mijozning Shartnoma shartlarini buzishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda ushbu Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Shuningdek, Shartnoma Bank tashabbusi bilan bir tomonlama tartibda Shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan kamida 45 (qirq besh) kalendar kun oldin Mijozni o'z qarorlari haqida yozma ravishda xabardor qilish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin, bunda Karta Bank tomonidan Shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin bloklanadi.

14.3. Mijoz Bankni Shartnomani bekor qilishning rejalashtirilgan sanasidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda istalgan vaqtda Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda barcha Kartalar Mijozning bildirishnomasi olingan kunda bekor qilinadi. Shartnomani bekor qilish va Kartani yopish to'g'risida yozma ariza topshirgan holda, Mijoz Bankka Kartani qaytaradi. Mijoz mavjud Qarzni Shartnomani bekor qilish haqida Mijoz tomonidan bildirishnoma taqdim etilgan sanasidan kechiktirilmay to'lashi shart. Agar Mijoz ushbu Shartnoma bandi bilan nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa, Shartnoma Mijoz tomonidan o'z majburiyatlari to'liq bajarilguniga qadar tegishli qismda amal qiladi. Ushbu Shartnoma bandida belgilangan Shartnomani bekor qilish tartibiga rioya qilmasdan Kartadan foydalanishdan voz kechish Shartnomani bekor qilishga va Kartani yo'qqa chiqarishga olib kelmaydi.

14.4. Karta bekor qilingan taqdirda, Shartnoma Mijoz va Bank tomonidan o'z majburiyatlari to'liq bajarilguniga qadar tegishli qismda amal qiladi. Bunda yillik xizmat ko'rsatish uchun Bank komissiyasi hisobdan chiqarilgan taqdirda, ushbu komissiya qaytarilmaydi.

14.5. MKH qoldig'i Mijoz tomonidan MKHni yopish va Kartani bekor qilish to'g'risida ariza topshirilganidan keyin 30 (o'ttiz) bank kunidan so'ng (Shartnomada belgilangan hollar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomada belgilangan tartibda Mijozning murojaatida ko'rsatilgan hisob raqamiga o'tkaziladi.

15. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH TARTIBI

15.1. Tomonlar Shartnomaga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega, bu ular tomonidan qo'shimcha kelishuv imzolash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar ushbu Shartnomaga tomonlar tomonidan qo'shimcha kelishuv imzolangan paytdan kuchga kiradi.

16. SHARTNOMA BO'YICHA NIZOLAR

16.1. Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar ezgulik va o'zaro tushunish asosida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Yuzaga kelgan nizolarni o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etish imkonsiz bo'lganda, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan sud tartibida hal etiladi.

16.2. Bank Mijoz va Benefitsiar o'rtasidagi barcha nizolarga aloqador emas.

17. BANK VA MIJOZNING MANZILI VA REKVIZITLARI

Bank:

“KDB Bank O'zbekiston” AJ
O'zbekiston Respublikasi, 100047,
Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Buxoro ko'chasi, 3-uy
INN 202167236 MFO 00842

Aloqa vositalari: +998-71-1208000 (ichki: 768, 765, 761, 760)

120-27-68, 120-27-65

Mijoz:

Manzil:

(Pochta indeksi, shahar, tuman, ko'cha/mavze, uy, xona)

Bank rekvizitlari:

(Valyuta hisob raqami raqami, bank nomi, bank manzili)

Bank

Mijoz



Direktor

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ

Park Jin-Sung

M.O.

Lavozim

F.I.Sh. _____

M.O.

1-ILOVA

VISA BUSINESS DEBET TO'LOV KARTASINI CHIQARISH VA XIZMAT KO'RSATISH TO'GRISIDA SHARTNOMAGA

KARTADAN FOYDALANISH QOIDALARI

1. Ushbu Qoidalar Mijozga tanishish va qo'llash uchun beriladi. Kartadan foydalanishda Mijoz/Saqlovchi quyida bayon etilgan shart va talablarga rioya qilishi shart.
2. Tayyor qilingan Kartani Bank bevosita Mijoz vakiliga beradi. Kartani olganda Saqlovchi Kartaning orqa tomonidagi maydonchaga o'z imzosini qo'yishi shart.
3. Kartani boshqa shaxslarga foydalanish uchun berish yoki garov sifatida topshirish taqiqlanadi. Vakolatsiz shaxs tomonidan taqdim etilgan Karta tortib olinishi kerak.
4. Kartaga salbiy omillar ta'sirining oldini olish zarur: elektromagnit maydonlari (displeylar, magnitlangan yoki magnit o'z ichiga olgan buyumlar yonida bo'lish, masalan, kalitlar, sumkalaridagi magnit qulflar), mexanik shikastlanishlar (tirnash, ifloslanish, qizib ketish (masalan, quyosh nurlari ostida) va magnit chiziqda yozuvni shikastlashi va avtomatlashtirilgan rejimda operatsiyalarni amalga oshirish imkonsizligiga olib kelishi mumkin bo'ladigan boshqa omillar. Kartani ishlatishda ortiqcha kuch ishlatish tavsiya etilmaydi.
5. Kartani olganda Mijoz vakiliga muhrlangan konvertda (PIN-konvert) PIN-kod beriladi. Saqlovchiga konvertni olgandan so'ng darhol ochishi, PIN-kodni yodlab olishi va vkladish hamda PIN-konvertni yo'q qilishi tavsiya etiladi. Bank tomonidan ma'lum bo'lmagan va Kartadan foydalanish davomida Mijoz/Saqlovchi tomonidan maxfiy saqlanishi kerak bo'lgan PIN-kodning oshkor etilishi uchun Bank javobgar emas.
7. Internet tarmog'ida Karta operatsiyalarini amalga oshirish uchun Mijozga 3D Secure/SecureCode parolini o'rnatish tavsiya etiladi (agar qo'llaniladigan bo'lsa). Bank tomonidan ma'lum bo'lmagan va Kartadan foydalanish davomida Mijoz tomonidan maxfiy saqlanishi kerak bo'lgan 3D Secure/SecureCode parolining Mijoz tomonidan oshkor etilishi uchun Bank javobgar emas (Ushbu band Bank tomonidan bunday xizmat ko'rsatilgan taqdirda kuchga kiradi).
9. Kartaga xizmat ko'rsatish barcha punktlari ushbu punktga Karta bo'yicha xizmat ko'rsatish imkoniyati haqida Mijozlarni xabardor qilish uchun Tizim logotiplariga ega ko'rsatgichlar bilan jihozlanadi.
10. Savdo va xizmat ko'rsatish korxonasida Karta operatsiyalarini amalga oshirish uchun Saqlovchi Kartani tegishli xizmat ko'rsatish punkti xodimiga hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etadi. Shuningdek, Saqlovchi PIN-kodni kiritishga tayyor bo'lishi kerak. Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida Karta operatsiyalarini amalga oshirishda Saqlovchiga Kartani ko'zdan qochirmaslik, shuningdek POS-terminal/Imprin-terning Chek/Slipida ko'rsatilgan Karta operatsiyasi summasini kassa aparatining savdo chekida ko'rsatilgan summa bilan mosligini tekshirish tavsiya etiladi.
11. POS-terminalning PIN blokida PIN-kodni kiritishda Mijozga uchinchi shaxslar tomonidan kuzatilishi imkonsiz bo'lgan PIN-kodni terish jarayonini ta'minlash tavsiya etiladi.
12. Karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, shuningdek MKHga ruxsatsiz kirilganda, Mijoz/Saqlovchi darhol Bankka og'zaki (telefon orqali) yoki yozma Kartani bloklash talabi bilan murojaat qilishi shart (shu jumladan Bank tomonidan bunday xizmat ko'rsatilgan taqdirda, tegishli SMS-xabarnoma yuborish yo'li bilan).
13. Bankga telefon orqali murojaatlar har qanday mumkin bo'ladigan nizoli vaziyatlarni tahlil qilish uchun ro'yxatga olinishi va yozib olinishi mumkin.
14. Bank tomonidan Parol-so'zni ko'rsatgan holda Kartani blokirovka qilish (shu jumladan Bank tomonidan bunday xizmat ko'rsatilgan taqdirda, tegishli SMS-xabarnoma yuborish yo'li bilan) fakti aniqlanganida Bank tomonidan Kartani bloklash oqibatlari uchun shikoyatlar qabul qilinmaydi.
15. Avval bloklangan Kartani blokdan chiqarish faqat Kartani vaqtincha blok qilish holatlarida mumkin. Ko'rsatilgan holatlarda Kartani blokdan chiqarish Bank tomonidan Mijozning yozma arizasiga asosan amalga oshiriladi. Mijozning qo'shimcha arizasiga asosan Bank yangi raqam va PIN-kod bilan yangi Karta chiqaradi. Bunda Bank yo'qolgan Karta uchun qo'llaniladigan tariflar bo'yicha Kartani qayta chiqarish uchun komissiya undiradi.

16. Bank ruxsatsiz foydalanishning oldini olish maqsadida blokirovka qilingan Kartaning rekvizitlarini Kartaga xizmat ko'rsatish punktlari tarmog'i bo'yicha yuborish huquqiga ega.
17. Kartaga xizmat ko'rsatish punktida Kartani ushlab qolish quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:
- Karta blokirovka qilingan bo'lsa;
 - Kartani taqdim etuvchi Saqlovchi bo'lmasa;
 - Saqlovchi Karta operatsiyasini amalga oshirgandan so'ng Kartani xizmat ko'rsatish punktida unutib ketgan bo'lsa.
18. Karta ushlab qolingani taqdirda, Mijoz Bankka (va tegishli mahalliy bankka) og'zaki (telefon orqali) yoki yozma murojaat qiladi.
19. Kartada uning amal qilish muddati tugaydigan oy va yil ko'rsatiladi. Karta ko'rsatilgan oyning oxirgi kuniga qadar amal qiladi. Barcha muddati o'tgan Kartalar bloklanadi va Bankka topshirilishi shart.
20. Bank nizoli vaziyatlar hal etilgunicha Kartani vaqtincha bloklash huquqiga ega.
21. Kartadan foydalanishdan voz kechish va/yoki Shartnomani bekor qilish holatida Mijoz Shartnomada belgilangan tartibda Kartani bekor qilish va topshirish uchun Bankka murojaat qiladi. Bunda Kartaga xizmat ko'rsatish uchun Bank komissiyasi qaytarilmaydi.
22. Kartani almashtirish yoki yo'qolgan Karta o'rniga yangi Karta chiqarish Mijozning yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.
23. Karta quyidagi hollarda almashtiriladi: uning amal qilish muddati tugasa, Karta shikastlangan bo'lsa, PIN-kod sir saqlash rejimi buzilgan bo'lsa, Mijoz PIN-kodni unutib qo'ygan bo'lsa, shuningdek Mijozning xohishiga ko'ra. Almashtirilayotgan Karta Bankka topshirilishi shart.
24. Mijozga MKHdan mablag' sarflanishini hisobga olish va mumkin bo'ladigan nizolarni hal etish uchun Sliplar va Cheklarni saqlash tavsiya etiladi.
25. Kartadan foydalanish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha Mijoz Bankka murojaat qiladi.
26. Tizim bo'yicha ma'lumotlar va amalga oshirilgan Karta operatsiyalari bo'yicha Ko'chirmalarni o'z vaqtida olish maqsadida Mijoz Bankni Pasportning rekvizitlari, Saqlovchining familiyasi, ismi o'zgarishi, yashash manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili, faks raqami va Kartani ochish va Shartnomani imzolash vaqtida Bankka taqdim etilgan boshqa har qanday ma'lumotlar o'zgarganligi haqida xabardor qiladi. Mijozga beriladigan ko'chirmada quyidagilar ko'rsatiladi:
- o'tgan kalendar oyining boshi va oxiriga Kartadagi pul qoldig'i;
 - oy oxiridagi mavjud qarz summasi (mavjud bo'lsa) va hisoblangan Bank komissiyalari;
 - hisobot davri uchun Kartaga o'tkazilgan va hisobdan chiqarilgan pul mablag'lar;
 - Karta operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar: Kartaning maskirovka qilingan raqami, Savdo va xizmat ko'rsatish korxonasi nomi, Karta operatsiyasining sanasi, valyutasi va summasi, MKH valyutasidagi muqobili, Bank tomonidan Karta operatsiyasi bo'yicha undirilgan yoki undirilishi lozim bo'lgan komissiya;
 - operatsiyani o'tkazish sanasi va Bank tomonidan operatsiyani qayta ishlash sanasi.
27. MKH va/yoki Karta bo'yicha ko'chirma Bankga tashrif buyurganda Mijoz vakiliga shaxsan topshiriladi. Shuningdek, SMS-xabarlash xizmatiga ulanganda, tranzaksiya va Kartadagi qoldiq haqida ma'lumot ro'yxatdan o'tgan mobil telefon raqamiga yuboriladi.
28. MKH va Karta bo'yicha qo'shimcha Ko'chirma Mijozning Bankka ariza bilan murojaat qilgan kundan boshlab 10 (o'n) Bank kuni ichida Qo'llaniladigan Tariflar bo'yicha pullik asosda taqdim etiladi.
29. Mijozga Karta va/yoki Karta ma'lumotlaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi, jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki Shartnoma tomonidan taqiqlangan va/yoki ruxsat etilmagan tovar va xizmatlar sotib olish.